

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ABDURAHMON JOMIY VA ALISHER NAVOIY “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONLARINING O'RGANILISHI

**Aziza Avezova**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.  
avezovaaziza649@gmail.com*

Bilamizki, xamsanavislik tarixida temuriylar davri adabiyoti ayniqsa, XV asr Hirot adabiy muhiti asosiy o'rinni egallaydi. Bu davrga kelib ikki buyuk xamsanavislar – Mavlono Abdurahmon Jomiy va Mir Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiyot oltin davrini boshdan kechirgan.

Asrlar davomida dunyoning ilmiy va adabiy jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan, adabiyot tarixida takrorlanmas qo'sh sahifani tashkil etgan Mavlono Abdurahmon Jomiy hamda o'zbek shoiri va mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning bebaho ijodini tadqiq etish muhim masalalardan biridir. Zero, “Ular o'lmas asarlari bilan jahon xalqlari o'rtasida tinchlik, ozodlik va insonparvarlik tamoyillarini, do'stlik va o'zaro ishonch g'oyalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar”<sup>1</sup>.

Shunday ekan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonlarini qiyosiy aspektda tadqiq qilish, xamsanavislik, dostonnavislik an'anasida shakllangan adabiy aloqalar, o'zaro ta'sir va bahramandlik kabi masalalarni o'rganish hozirgi integratsiyalashuv zamonida adabiyotshunoslikning zarur vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu borada hali jiddiy tadqiqot olib borilmagan. Faqat Ye.E.Bertels, G.YU. Aliyev S.Narzullayeva, A.Abduqodirov kabi olim va olimalarning ilmiy adabiyotlarida ba'zi fikrlarni kuzatishimiz mumkin.

Asosan, Saida Narzullayevaning Sharq xalqlari adabiyoti tarixida “Layli va Majnun” mavzusi<sup>2</sup> nomli monografiyasi o'zbek qiyosiy adabiyotshunosligi sohasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bunda olim ilmiy adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkinligini aytadi. Birinchisi: “Layli va Majnun” hikoya va dostonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadqiqotlar bo'lsa, ikkinchisi “Layli va Majnun” asarlari qiyosiy planda tahlil qilingan tadqiqotlardir. Birinchi guruhga “Majnun va Layli”

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi.

<https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shmmirziyoyevning-markaziy-va-janubiy-osiyo-mintaqaviy-o,zaro-bogliqlik-tahdidlar-va-imkoniyatlar-mavzusidagi-xalqaro-konferensiyadagi-nutqi>

<sup>2</sup>С. Нарзуллаева. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литератур народов советского востока. Ташкент. Издательство “ФАН” УЗБЕКСКОЙ ССР 1983



# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

haqidagi hikoya va she'rlarning kelib chiqishi, Sharq xalqlari orasida tarqalishi masalalari kuzatiladi, u yoki bu milliy adabiyotga mansubligi ochib beriladi, asarlar syujeti va kompozitsiyasi xususiyatlari o'rganiladi. Bu guruh asarlari ichida, ayniqsa, I.Yu.Krachkovskiyning “Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли” nomli tadqiqoti muhim o'rin tutadi.

Monografiyada Nizomiy Ganjaviyning “Layli va Majnun” dostoni va uning keyingi davr shoirlari ijodiga ta'siri keng yoritilgan. Shu mavzudagi dostonnavislarning obraz yaratishdagi mahorati batafsil taqqoslangan. “Layli va Majnun” dostonlaridagi gumanistik g'oyalar, ayniqsa, Layli va Majnun obrazlari evolyutsiyasi batafsil tadqiq qilingani diqqatga sazovor. Shu jumladan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonlarining ham o'ziga xos xususiyatlari kuzatilganini ko'ramiz. Xulosa qilib aytganda, Jomiy va Navoiyning qalamiga mansub bo'lgan bir nomli 2 ta mustaqil doston yaratilgan.

Ye.E.Bertelsning “Навай и Джамии”<sup>3</sup> asari esa XV asr adabiy muhiti, tarixiga oid aniq va qimmatli xulosalar keltirilgani bilan muhim. Olim tojik va o'zbek xalqlari ma'naviy madaniyati namoyandalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatini o'rganadi. XV asr Markaziy Osiyo adabiy hayoti haqida keng ma'lumot beradi, tojik va o'zbek xalqlari orasidagi yaqin madaniy – tarixiy aloqalarni ochib beradi. Asarda tarixiy davr batafsil tasvirlangan bo'lib, ko'pgina savollar o'z yechimini topgan. (masalan nazira yozish an'anasi) Bertels sharq she'riyatining estetik asoslarini hisobga olgan holda, milliy adabiyotlarning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'siri masalalariga qiyosiy yondashish orqali, turkiy adabiyotning o'ziga xoslik darajasini mohirlik bilan aniqlaydi. Ayniqsa, Yevropa sharqshunoslari faoliyatiga nisbatan o'zining tanqidiy fikrlarini bildirgani va buni asoslab bergani diqqatga sazovor. Asarda olimning “Layli va Majnun” nomli maqolasi<sup>4</sup> kiritilgan bo'lib, unda ilk xamsanavis, Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” dostoniga kiritgan yangi motivlar, obrazlar talqini davr muhitidan kelib chiqqan holda, chuqur asoslab berilgan. Xusrav Dehlaviy “Layli va Majnun”ining Nizomiy dostonidan farqli tomonlari aniq yoritilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy “Layli va Majnun”dostonining o'ziga xos tomonlari, dostonga doir qimmatli fikrlar bor.<sup>5</sup> Ammo olim Jomiyning shu nomli dostonini tahlilga jalb qilmagani qiziq. Garchi, Jomiy va Navoiy asarlari bevosita qiyoslanmagan bo'lsada, ushbu ilmiy adabiyot adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv jihatidan muhim hisoblanadi.

<sup>3</sup>Е.Э.Бертельс. Избранные труды. НАВАЙ И ДЖАМИ. Издательство “Наука”. Москва: 1965

<sup>4</sup>Shu kitob 417 - bet

<sup>5</sup> «ЛЕЙЛИ И МЕДЖЖУН» АЛИШЕРА НАВОИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ Е.Э. БЕРТЕЛЬСА



# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Navoiy va Jomiyning “Layli va Majnun” dostonlarini qiyosiy planda ba’zi bir fikrlarni G.Yu. Aliyevning tadqiqotida<sup>6</sup> ko‘rishimiz mumkin. Muallif Jomiyning “Layli va Majnuni”ga kiritilgan, Nizomiyda mavjud bo‘lmagan ba’zi yangi motivlar haqida to‘xtalib o‘tadi. Navoiy esa ushbu dostonni yangi detallar bilan boyitganini qayd etadi. Ammo bu kuzatishlar batafsil emas.

Professor, Abdusalom Abduqodirov o‘zining Jomiy va Navoiy “Layli va Majnun” dostonlarining qiyosiy tahlili<sup>7</sup> nomli maqolasida bu boradagi ayrim kuzatishlarini bildirgan. Dostonlarning kirish bobi, voqealar rivojidadagi o‘xshashlik va farqlar qiyoslangan. Ammo adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv asosida kirishilmagan. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodlaridan unumli foydalanilmagan. Tabiiyki, bularning hammasini bir maqolada aks ettirish mushkul.

Abdusalom Abduqodirov dostonlarning yozilish yili haqida quyidagi fikrni keltiradi: Navoiyning dostoni uning murshidi va ustози Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan bir muddatda, ya’ni 1484 – yilda yozildi.<sup>8</sup> Bu borada Bertelsning kuzatuvlariga yuzlansak, Alisher Navoiy o‘z dostonini 1483 – yilda yozgan va dostonda Nizomiy hamda Dehlaviyning shu nomli dostonidan ilhomlanganini yozadi. Ammo Abdurahmon Jomiyning dostoni bilan tanish bo‘lmagan chunki, Jomiyning “Layli va Majnuni” 1484 – 1485 yillarda ya’ni taxminan 1,5 yil keyin yozilgan<sup>9</sup> ligini kuzaramiz. Afsuski, Olim ushbu fikrning manbasini ko‘rsatib o‘tmagan. Toshpo‘lat Ahmedov o‘z dissertatsiyasida “Navoiy “Layli va Majnun” dostonini yaratishga kirishganda, Jomiy ham “Xamsa”sining shu dostonini bunyodga keltirish bilan band bo‘lgan. Shuning uchun Navoiy o‘z dostoni (Layli va Majnun)ni yaratishda Jomiyning “Layli va Majnun” dostonidan bahramand bo‘lolmagan. Chunki ularning bu asarlari bir yilda, ya’ni 1484 – yilda birin – ketin tugatilgan”<sup>10</sup>, deb Bertelsning fikriga qarshi chiqadi. Ammo afsuski, Toshpo‘lat Ahmedov ham ushbu ma’lumot manbasini ko‘rsatmaydi.

Navoiyshunoslik darsligida esa “Abdurahmon Jomiy “Xamsa”sidagi to‘rtinchi doston “Layli va Majnun”mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, 1483 – yilda yaratilgan”<sup>11</sup>, deb yozilgan. A’loxon Afsahzod esa Abdurahmon Jomiyning asari

<sup>6</sup> Г.Ю.Алиев “Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока”. Издательство “Наука”. Москва 1985 (99,156 – betlar)

<sup>7</sup> Абдусалом Абдуқодиоров. Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари. Хужанд “Хуросон” 2007 й

<sup>8</sup> Shu kitob 66 – bet.

<sup>9</sup> Е.Э.Бертельс. Избранные труды. НАВАИ И ДЖАМИ. Издательство “Наука”. Москва: 1965 424 – bet.

<sup>10</sup> Т. Ахмедов. Алишер Навоийнинг “Лайл ива Мажнун” достони. Тошкент – 1965 й. 76 - bet

<sup>11</sup> Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov “Navoiyshunoslik” 1 – kitob darslik “Tamaddun” Toshkent 2018. 70 - bet



# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

1484 – yilda yozilganligini qayd etadi<sup>12</sup>. G.Yu. Aliyev ham asarning yozilish yilini 1484 – yilda yozilganligini aytadi<sup>13</sup>. Xulosa qilib aytganda, bu borada keltirilgan faktlarning manbasi ko'rsatilmagani bois turli xil qarashlar vujudga kelmoqda. Fikrimizcha, bu masala yuzasidan asarlarning qo'lyozma variantlarini yana bir bor sinchiklab o'rganishga zarur.

Qiziq tomoni shundaki, Navoiy dostoni ustози Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan bir muddatda, ya'ni 1484 - yilda yozilgan bo'lsa, nahotki, bir zamon va makonda yashab, ijod qilgan Jomiy va Navoiy bir mavzuda asar yozganlaridan boxabar bo'lishmagan bo'lsa. Bu borada Alisher Navoiyning ustozlari haqida yozgan satrlariga diqqat qiladigan va “Xamsat ul – mutahayyirin” asarini kuzatadigan bo'lsak, Navoiy ustози Jomiyning shu nomli asari haqida ma'lumot bermaganiga guhov bo'ldik. Demak, Alisher Navoiy ustози Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” asari haqida xabardor bo'lmagan. Natijada, mavzusi bir xil bo'lgan dostonlar ko'zdan kechirilsa, ikki shoir qalamidan ikki yangi asar vujudga kelganini ko'ramiz.

Dostonlardagi muqaddima boblarining qiyosiy tahlili ikki ijodkor g'oyaviy va badiiy niyatining mohiyatini anglashda muhim o'rin tutadi. Zero, “Xamsa” dostonlaridagi muqaddimalar voqelikka shunchaki an'anaviy kirish bo'lmay, balki dostonlar mundarijasi uchun ochqich vazifasini ham o'taydi. Shu ma'noda muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar tagzaminida yashiringan ramziy ma'nolarni ochishga yordam beradi”.<sup>14</sup>

Jomiy dostoni muqaddimasi quyidagicha: doston boblarga ajratilmagan bo'lib, boshidan 2 ta qism Allohga hamd, 2 ta qism Payg'ambar na'ti, sodiqlar ishq va oshiqlar sadoqati haqida, kitobning yozilish sababi va bu kitobning tartibi boisi, oyu yili bitib olamdan o'tganlarni yod etmoq va ba'zi iste'dodlar duosida so'z.

Navoiy dostoni muqaddimasi 9 bobni o'z ichiga oladi va ular quyidagilardan iborat: Allohga hamd va munajat; Payg'ambar na'ti va me'roji; Nizomiy va Xusrav Dehlaviy ta'rifi, ularning so'zdan qanday foydalanganliklari haqida; Jomiy ta'rifi; Husayn Boyqaro va Sulton Badiuzzamon madhlari; xayol otiga minib, ishq vodiysiga borish hamda hotifdan Layli va Majnun dostonini eshitib, uni yozishga kirishgani haqida. Ko'rinadiki, Navoiyda an'anaviy hamd va na't ancha keng berilgan. Navoiy

<sup>12</sup> Аълохон Афсаҳзод. Мавлоно Абдурахмони Чоми – адиб ва тафаккури номи. Душанбе “Адиб” 2014. 314 – bet.

<sup>13</sup> Г.Ю.Алиев “Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока”. Издательство “Наука” . Москва 1985. 102 - bet

<sup>14</sup> Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: ТАМАДДУН, 2016.



# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

muqaddimada Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Husayn Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamon Mirzolarga ham maxsus boblar bag'ishlagan. Bunday tasviriy o'rinlar Jomiyda yo'q.

Xullas, Abdurahmon Jomiy ham, Alisher Nanoiy ham salaflari an'alaridan voz kechmagan holda, shu bilan birga shunchaki davom ettirmay, uni rivojlantirgani, “Layli va Majnun”dagi obrazlar tasvirini yanada takomillashtirgani bilan bog'liq masalalarni o'rganish, shubhasiz, adabiyotshunoslikni yangicha ilmiy qarashlar bilan boyitadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu ikki mutafakkir asarlari qiyosiga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratilishi zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Demak, Adabiy jarayonga tarixiy genetik yondashuv asosida kirishish muhim hisoblanadi. Zero, A.N.Veselovskiy aytganidek: *adabiyot tarixi – ijtimoiy fikr, madaniyat va fan tarixidir*, shoir shaxsiyatini esa ma'lum tarixiy sharoit shakllantiradi. Shoirning individuallik, shaxsiy tashabbus darajasini aniqlash uchun, dastavval uning ijodi nima bilan qurollangani tarixini kuzatish kerak.<sup>15</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi.
2. С. Нарзуллаева. Тема “Лейли и Меджнун” в истории литератур народов советского востока. Ташкент. Издательство “ФАН” УЗБЕКСКОЙ ССР 1983
3. Е.Э.Бертельс. Избранные труды. НАВАИ И ДЖАМИ. Издательство “Наука”. Москва: 1965
4. Г.И. Халлиева. «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН» АЛИШЕРА НАВОИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ Е.Э. БЕРТЕЛЬСА
5. Gulnoz Xalliyeva “Qiyosiy adabiyotshunoslik” Toshkent «Akademnashr» 2020
6. Г.Ю.Алиев “Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока”. Издательство “Наука”. Москва 1985
7. Абдусалом Адбукодиров. Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари. Хужанд “Хуросон” 2007 й
8. Bertels НАВАИ И ДЖАМИ. Издательство “Наука” Москва 1965
9. Т. Ахмедов. Алишер Навоийнинг “Лайл ива Мажнун” достони. Тошкент – 1965 й.
10. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov “Navoiyshunoslik” 1 – kitob darslik “Tamaddun” Toshkent 2018.
11. Аълохон Афсахзод. Мавлоно Абдурахмони Чоми – адиб ва тафаккури номи. Душанбе “Адиб” 2014.
12. Академические школы в русском литературоведении. – М.: Наука, 1975.
13. Internet materiallari

<sup>5</sup> Академические школы в русском литературоведении. – М.: Наука, 1975. – С.211.